

## OGAHIY G'AZALLARIDA IJTIMOIY-AXLOQIY QARASHLAR

*Atayeva Zamira Raximberdiyevna*

*Ogahiy ijod maktabi oliy toifali ona tili va*

*adabiyot fani o 'qituvchisi*

*email:atayevazamira1974@gmail.com*

**Annotatsiya.** Muhammad Rizo Ogahiy lirikasi mumtoz adabiyotimizning buyuk xazinasi hisoblanadi. Shoир she'riyati mavzu jihatida rang-barang. Unda Sharq falsafasi, sharqona odob-axloq mavzulari o'ziga xos tarzda qalamga olinadi. Ushbu maqolada Ogahiy qalamiga mansub g'azallarda shoирning ijtimoiy-axloqiy qarashlarini atroflicha tahlil qilindi, she'rlaridan misollar keltirildi.

**Kalit so'zlar:** Muhammad Rizo Ogahiy, "Ta'viz ul- oshiqin", Xorazm adabiy muhiti, sharqona fazilatlar, Qur'on, hadis, ijtimoiy-aloqiy qarashlar.

Muhammad Rizo Ogahiy nafaqat Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandası, balki A.Navoiydan keyingi davr turkiy adabiyotining ham eng yirik vakili hisoblanadi. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul Ogahiy haqida shunday yozadi: " O'zbek mumtoz adabiyotida , xususan ,Xorazm adabiy muhitida Ogahiy yaratgan ijod qasri shunchalik muhtasham va naqshinkorki, uning ko'rki, rangi, ma'no mohiyatini hanuzgacha hech kim to'la ta'rif-u tavsif etib bera olgani yo'q... Ogahiyda kubraviylik tariqati asoschisi Najmiddin Kubro, javonmardlik ta'limoti va haqiqatlarining to'limgan kuychisi Pahlavon Mahmud bilan ma'naviy-ruhoniy vobastalik bo'lgani bois unda qalb tasfiysi va dunyo voqea-hodisalariga bashorat ko'zi bilan boqish layoqati boshqacha bo'lgan".

Muhammad Rizo Ogahiy adabiy merosini kuzatar ekanmiz, shoирning odob-axloq masalalariga bag'ishlab yozgan maxsus asarini uchratmaymiz. Lekin " Ta'viz ul -oshiqin" devoni dagilar g'azallarni tahlil qilish asnosida Ogahiy nafaqat she'riyatida ishqni tarannum etgani, balki sharqona odob - axloq , odamiylik fazilatlarini ham yuksak pog'onalarda kuylaganining guvohi bo'lamiz.

Ogahiy ijtimoiy- axloqiy qarashlarida Qur'on, hadislar va tasavvuf ta'limoti g'oyalari yaqqol aks etadi. G'azallarida insoniy fazilatlarni ulug'laydi, ularning aksi bo'lgan g'ayriinsoniy illatlarni qoralaydi. Jumladan, quyidagi misralarda shoирning inson kamolotining negizi bo'lgan ilm egallah, uning bani odamg'a foydasi haqidagi falsafiy mulohazalari o'z aksini topgan:

Ilm andoza ganji nofi'dur bani odamga kim,

Kimda ul bo'lsa, ikki olam bo'lur obod anga.

Kasbi ilm etmay kishi gar qolsa mahzi jahl ila,

Ikki olam obro'si bo'lg'usi barbod anga

Ushbu misralar Ogahiyning shohbayt darajasiga ko'tarilgan bayti desak mubolag'a bo'lmaydi, albatta.

Ogahiy g'azallarini tahlil qilar ekanmiz, buyuk mutafakkir ijodida mehr-muruvvat, saxiylik, qanoatlilik kabi insoniy fazilatlarga alohida e'tibor qaratilganining guvohi bo'lamiz. Shoir foniy dunyo boyliklarini qancha ko'p to'plagan bo'lsang-da, agar saxovat lazzatidan bexabar bo'lsang, u senga huzur bera olmaydi deydi.

Gar saxovat lazzatidin bexabarman, ey, g'aniy,  
 Maxzaningda jam bo'lgan siym ila zardin na haz.  
 Chun qo'yub ketkungdur oxir yuz tuman armon bila,  
 Nas, Faridun moli-yu mulki Skandardin na haz.  
 Ogahiy, nazming aro dilso'z mazmun bo'lmasa,  
 Sodda ash'oring bila devon-u daftardin na haz.

Ogahiy she'riyatida tasavvufiy qarashlar, jumladan, hadisi sharifdagi "Faqirligim - faxrimdir" goyasiga hamohang misralarni ham uchratamiz.

Ogahiy shunday yozadi:

Ey,g'aniy, halvoni ta'rif etmagin, faqr ahlig'a  
 Tortibon mehnat topib emas yegan nonning lozim.  
 Gar karim ersang, dam ehson etardin chekma qo'l,  
 Kim, karam ahlig'a yo0q hech ne'mat ehsondin lozim.

Ogahiy g'azallarida yoshlarga foniy dunyo lazzatlariga aldanmaslik, bu dunyo zohiran qanddek shirin, aslida esa talx, achchiqdird. Shuning uchun keksa donishmandlar pandiga qulqutmoq kerak degan o'g'itlarni qayta - qayta takrorlaydi.

Oqilona ersang bo'lmaq'il g'arra jahon lazzatig'a  
 Ul sifatkim tifllar ko'rsa bo'lur xursand qand.  
 Talxkom o'lmay desang zahri nadamdin ey, yigit,  
 Tut qarilar gar sanga har nav bersa pand qand.

Muhammad Rizo Ogahiyning axloqiy qarashlari, pand- nasihatlari barcha davrlar uchun o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Ulardagi umrboqiy g'oyalar asrlar osha avlodlarga odamiylik shevasidan saboq beraveradi .

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Muhammad Rizo Ogahiy. "Mulki millatga emin o'lsa agar ogohlar..." Toshkent. "Adabiyot" nashriyoti, 2022

2. Ibrohim Haqqul. “Ogahiyning shaxsiyati va she’riyati xususida” maqola. www.khdavron.uz
3. Ogahiy ijodi. “Ma’naviyat yulduzlari” Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999

